



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI FAR'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **36,2** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,2** mingtaga kamaygan yoki **22,0 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga


8,9 birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023- yilning yanvar-dekabrida **8,0** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,0 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
2309	Oltiariq tumani	2008
1469	Qo'shtepa tumani	1285
1732	Bag'dod tumani	1337
2152	Buvayda tumani	1561
1546	Beshariq tumani	1234
2053	Quva tumani	1662
2352	Uchko'prik tumani	1850
1588	Rishton tumani	1405
1113	So'x tumani	1004
2206	Toshloq tumani	1725
2196	O'zbekiston tumani	1594
1810	Farg'ona tumani	1580
2366	Dang'ara tumani	1745
1178	Furqat tumani	970
937	Yozyovon tumani	894
7777	Farg'ona shahar	5849
5536	Qo'qon shahar	3944
1641	Quvasoy shahar	1413
4389	Marg'ilon shahar	3178

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **36 238** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **8 036** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Farg'ona shahrida **5 849** tani yoki jamiga nisbatan **16,1 %** ni tashkil etdi.

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Farg‘ona sh	18,4
Quvasoy sh	14,1
Qo‘qon sh	12,9
Marg‘ilon sh	12,8
So‘x t	12,1
Dang‘ara t	10,0
Oltiariq t	8,9
Toshloq t	8,0
Uchko‘prik t	7,7
Furqat t	7,7
Yozyovon t	7,5
Farg‘ona t	7,2
O‘zbekiston t	6,8
Rishton t	6,5
Buvayda t	6,4
Qo‘shtepa t	6,2
Quva t	6,1
Bag‘dod t	5,8
Beshariq t	5,1

Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda



2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **8,9** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **2,8** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona shahrida **18,4** birlik, Quvasoy shahrida **14,1** birlik, Qo‘qon shahrida **12,9** birlik, Marg‘ilon shahrida **12,8** birlik va So‘x tumanida **12,1** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Fargʻona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori koʻrsatkich

Fargʻona shahar
– 18,4 birlik.

Oʻrta koʻrsatkich

Oltiariq tumani
– 8,9 birlik.

Eng past koʻrsatkich

Beshariq tumani
– 5,1 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori koʻrsatkich Fargʻona shahrida 18,4 birlik, Quvasoy shahrida 14,1 birlik, Qoʻqon shahrida 12,9 birlik, Margʻilon shahrida 12,8 birlik, Soʻx tumanida 12,1 birlik, Dangʻara tumanida 10,0 birlik, Oltiariq tumanida 8,9 birlik, Toshloq tumanida 8,0 birlik, Uchkoʻprik tumanida 7,7 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, oʻzi tavakkal qilib va oʻz mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan toʻgʻri keladigan tadbirkorlik subyektlarining koʻp tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Fargʻona shahri

18,4

Qoʻqon shahri

12,9

Soʻx tumani

12,1

Quvasoy shahri

14,1

Margʻilon shahri

12,8

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

341	Oltiariq t.	368
270	Qo'shtepa t.	338
289	Bag'dod t.	302
338	Buvayda t.	350
337	Beshariq t.	276
291	Quva t.	420
279	Uchko'prik t.	310
299	Rishton t.	326
183	So'x t.	239
402	Toshloq t.	464
331	O'zbekiston t.	295
266	Farg'ona t.	277
353	Dang'ara t.	342
198	Furqat t.	233
181	Yozyovon t.	243
934	Farg'ona sh.	1 436
621	Qo'qon sh.	788
253	Quvasoy sh.	455
406	Marg'ilon sh.	574

2023- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Farg'ona sh.	17,9
Qo'qon sh.	9,8
Marg'ilon sh.	7,1
Toshloq t.	5,8
Quvasoy sh.	5,7
Quva t.	5,2
Oltiariq t.	4,6
Buvayda t.	4,4
Dang'ara t.	4,3
Qo'shtepa t.	4,2
Rishton t.	4,1
Uchko'prik t.	3,9
Bag'dod t.	3,8
O'zbekiston t.	3,7
Beshariq t.	3,4
Farg'ona t.	3,4
Yozyovon t.	3,0
So'x t.	3,0
Furqat t.	2,9


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – **17,9** %, Qo'qon shahri – **9,8** %, Marg'ilon shahri – **7,1** %, Toshloq tumani – **5,8** %, Quvasoy shahri – **5,7** %, Quva tumani – **5,2** %, Oltiariq tumani – **4,6** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida **3 336** ta, sanoatda **1 711** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **686** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Farg‘ona shahrida **1 444** ta, Qo‘qon shahrida **789** ta hamda Marg‘ilon shahrida **574** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida Farg'ona viloyatida jami **47 412** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **20 733** (yoki **43,7 %**) ta, sanoat sohasida – **10 989** (yoki **23,2 %**) ta, xizmatlar sohasida – **10 017** (yoki **21,2 %**) ta, qurilish sohasida – **3 047** (yoki **6,4 %**) ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 626** (yoki **5,5 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2022- y. ■ 2023- y.




■ 2022- y. ■ 2023- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-dekabrida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,5** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **0,6** punktga ko'paygan.




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,4** % ni, qishloq xo'jaligida **95,1** % ni, yo'lovchi tashishda **96,1** % ni, yuk aylanmasida **94,6** % yuk tashishda **93,4** % ni, chakana savdoda **92,4** %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **18 054,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahri (**2 939,1** mlrd. so'm), Qo'qon (**2 772,7** mlrd. so'm), Uchko'prik (**2 254,6** mlrd. so'm), Marg'ilon (**1 628,5** mlrd. so'm), Qo'shtepa (**1 215,5** mlrd. so'm) va Dang'ara (**885,9** mlrd. so'm) shahar va tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. So'x tumanida (**121,9** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega shahar va tumanlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, % da

2023- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 49,2 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahri (96,8 %), Dang'ara tumani (79,5 %), Beshariq tumani (71,7 %), Uchko'prik tumani (68,3 %), Bag'dod tumani (66,8 %), va Buvayda tumani (64,4%) tashkil etdi.

So'x t	100,0
Furqat t	100,0
Yozyovon t	100,0
Marg'ilon sh	96,8
Dang'ara t	79,5
Beshariq t	71,7
Uchko'prik t	68,3
Bag'dod t	66,8
Buvayda t	64,4
Oltiariq t	58,2
Rishton t	57,3
O'zbekiston t	55,0
Quva t	51,6
Qo'shtepa t	49,9
Qo'qon sh	44,8
Toshloq t	38,6
Quvasoy sh	37,0
Farg'ona sh	28,5
Farg'ona t	28,4

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Farg'ona sh	2 323,6	82,7
Qo'qon sh	660,1	86,5
Quvasoy sh	275,2	89,6
Marg'ilon sh	546,1	43,8
Farg'ona t	483,5	73,8
Toshloq t	460,5	82,3
Oltiariq t	381,1	99,8
Quva t	282,7	69,2
Bag'dod t	332,8	92,5
Buvayda t	300,9	93,0
Qo'sh tepa t	279,1	63,1
Uchko'prik t	285,2	99,8
O'zbekiston t	189,5	48,9
Yozyovon t	205,8	87,6
Rishton t	183,4	99,7
Dang'ara t	179,3	45,0
Furqat t	166,4	99,7
So'x t	174,4	99,4
Beshariq t	150,7	94,9

hajmi, mlrd.
so'mda


ulushi, % da

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 7 860,2 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 76,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (2 323,6 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (660,1 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (546,1 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (483,5 mlrd. so'm), Toshloq tumani (460,5 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (381,1 mlrd. so'm) hamda Bag'dod (332,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **13 012,0** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **64,3 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **125,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Farg'ona shahri (**2 028,2** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**1 655,2** mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (**1 334,0** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**1 123,7** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**978,1** mlrd. so'm), O'zbekiston tumani (**961,0** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**733,0** mlrd. so'm) qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya haimi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **37,5** trln. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **117,5** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Oltiariq tumani (3 385,8 mlrd. so'm), Rishton tumani (2 972,8 mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (2 892,2 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (2 745,3 mlrd. so'm), Beshariq tumani (2 576,4 mlrd. so'm), Quva tumani (2 502,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Oltiariq t **3,4** 95,5

Qo'shtepa t **2,9** 97,3

Bag'dod t **2,7** 96,9

Buvayda t **2,2** 99,8

Beshariq t **2,6** 96,1

Quva t **2,5** 97,8

Uchko'prik t **2,1** 99,5

Rishton t **3,0** 97,5

So'x t **0,5** 90,4

Toshloq t **2,2** 96,6

O'zbekiston t **2,4** 98,5

Farg'ona t **2,5** 75,7

Dang'ara t **2,2** 98,6

Furqat t **1,7** 99,4

Yozyovon t **1,5** 97,0

Farg'ona sh **0,8** 88,9

Qo'qon sh **0,3** 93,7

Quvasoy sh **1,6** 90,5

Marg'ilon sh **0,5** 99,4

hajmi, trln. so'mda 
ulushi, % da 

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **24 728,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,4 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **106,3 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Oltiariq t	777,7	94,5
Qo'shtepa t	897,4	98,9
Bag'dod t	764,0	97,1
Buvayda t	1 147,1	97,6
Beshariq t	828,7	97,4
Quva t	1 239,4	98,2
Uchko'prik t	1 555,7	66,9
Rishton t	686,7	96,9
So'x t	358,6	98,9
Toshloq t	534,8	98,4
O'zbekiston t	599,1	96,8
Farg'ona t	957,2	99,0
Dang'ara t	482,5	96,8
Furqat t	350,2	97,7
Yozyovon t	539,2	98,4
Farg'ona sh	3 785,4	85,9
Qo'qon sh	4 567,9	93,4
Quvasoy sh	575,1	96,6
Marg'ilon sh	4 081,5	98,3

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri (4 567,9 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (4 081,5 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (3 785,4 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (1 555,7 mlrd. so'm), Quva tumani (1 239,4 mlrd. so'm) va Buvayda tumani (1 147,1 mlrd. so'm)) hissasiga to'g'ri keldi.


2018 va 2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda 
 ulushi, % da 

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **17 798,8** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,9 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **112,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona sh. (**3 577,9** mlrd. so'm), Qo'qon sh. (**2 794,7** mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (**1 828,5** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**1 032,6** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**723,0** mlrd. so'm), Farg'ona tumani (**702,9** mlrd so'm) va Qo'shtepa tumani (**691,2** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-dekabr oylarida)

8 080,5	Savdo xizmatlari	30,4
5 271,9	Moliyaviy xizmatlar	19,8
5 091,5	Transport xizmatlari	19,1
1 430,0	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,4
1 295,4	Shaxsiy xizmatlar	4,9
1 274,1	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,8
693,8	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,6
745,3	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,8
593,4	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,2
555,8	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,1
507,2	Ijara xizmatlari	1,9
264,7	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,0
789,1	Boshqa xizmatlar	3,0

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **30,4 %** (**8 080,5** mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar **19,8 %** (**5 271,9** mlrd.so'm), transport xizmatlarida – **19,1 %** (**5 091,5** mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,4 %** (**1 430,0** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlar **4,9 %** (**1 295,4** mlrd. so'm) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlarda **4,8 %** (**1 274,1** mlrd.so'm) ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda **1,0 %** (**264,7** mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH doll.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **464 306,6** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **68,4** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Farg'ona sh.	30,7	56,3
Qo'qon sh.	30,6	56,8
Quvasoy sh.	16,9	84,8
Marg'ilon sh	21,4	99,7
Oltiariq t.	111,1	97,1
Qo'shtepa t.	53,1	61,4
Bag'dod t.	11,7	65,2
Buvayda t.	10,3	71,4
Beshariq t.	9,0	59,1
Quva t.	23,2	60,7
Uchko'prik t.	69,4	87,3
Rishton t.	5,5	47,9
So'x t.	6,4	100,0
Toshloq t.	14,3	77,0
O'zbekiston t.	7,8	49,5
Farg'ona t.	7,1	45,2
Dang'ara t.	18,5	81,0
Furqat t.	10,3	100,0
Yozyovon t.	5,9	100,0


hajmi, mln. AQSH dollar

ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida – **100,0** %, Furqat tumanida – **100,0**%, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Marg'ilon shahrida – **99,7** %, Oltiariq tumanida – **97,1**%, Uchko'prik tumanida – **87,3** %, Quvasoy shahrida – **84,8** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Farg'ona tumanida – **45,2** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **1 051,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **81,5%** ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi So'x tumanida – **100,0%**, Furqat tumanida – **100,0 %**, Yozyovon tumanida – **100,0 %**, Marg'ilon shahrida – **99,9 %**, Toshloq tumanida – **99,7 %**, Dang'ara tumanida – **98,0%**, hamda Buvayda tumanida **97,0 %** ni tashkil etdi.

Oltiariq t	82,3
Qo'shtepa t	72,1
Bag'dod t	70,3
Buvayda t	97,0
Beshariq t	94,9
Quva t	67,1
Uchko'prik t	75,3
Rishton t	31,6
So'x t	100,0
Toshloq t	99,7
O'zbekiston t	86,0
Farg'ona t	87,6
Dang'ara t	98,0
Furqat t	100,0
Yozyovon t	100,0
Farg'ona sh	58,3
Qo'qon sh	89,4
Quvasoy sh	86,4
Marg'ilon sh	99,9


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



84,5 %

Yuk
tashishda


2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **84,5 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,0 %** ni tashkil qildi.



94,6 %

Yuk
aylanmasida


2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,6 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,5%** ni tashkil qildi.



96,1 %

Yo'lovchi
tashishda

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,1 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,8%** ni tashkil qildi.




97,4 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,4%** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,8 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil IVchorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 692** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **632 (37,4 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **976 (57,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **84 (5,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **40,2 % (680 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,8 % (470 ta)**, sanoatda – **19,6 % (332 ta)**, qurilishda – **8,8 % (149 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3,6 % (61 ta)** ni tashkil etdi.

2023- yil IV- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

114	Oltiariq tumani	6,7
38	Qo'shtepa tumani	2,2
62	Bag'dod tumani	3,7
56	Buvayda tumani	3,3
66	Beshariq tumani	4,0
79	Quva tumani	4,7
101	Uchko'prik tumani	6,0
72	Rishton tumani	4,3
49	So'x tumani	2,9
61	Toshloq tumani	3,6
63	O'zbekiston tumani	3,7
75	Farg'ona tumani	4,4
80	Dang'ara tumani	4,7
44	Furqat tumani	2,6
46	Yozyovon tumani	2,7
291	Farg'ona sh.	17,2
199	Qo'qon sh.	11,8
51	Quvasoy sh.	3,0
144	Marg'ilon sh.	8,5


Soni, dona

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona shahri (291 ta), Qo'qon shahri (199 ta), Marg'ilon shahri (144 ta), Oltiariq (114 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning IV choragida **483** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **632** taga yetgan yoki 2019- yilning IV choragiga nisbatan **149** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **715** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrida **976** ta yoki **261** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **66** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **84** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **18** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning IV choragida **738** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **663** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **75** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning IV choragida **493** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragida **775** ta yoki **282** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019- yilning IV choragida **28** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **56** tani tashkil etib, **28** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning IV choragida **38,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **37,4** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **0,8** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilda **56,6** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragida **57,7** % yoki **1,1** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **5,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **4,9** % ga yetgan yoki **0,3** % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning IV choragida **58,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **39,2** % ga yetgan yoki 2019- yilning **IV** choragida nisbatan **19,2** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning IV choragida **39,0** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrida **45,8** % yoki **6,8** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning IV choragida **2,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning **IV** choragiga kelib, bu ko'rsatkich **3,3** % yoki **0,7** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **43,0** % ni, savdoda – **39,9** % ni, xizmatlar sohasida – **36,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **64,0** % ni, sanoatda – **63,3** % ni, xizmatlar sohasida – **58,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **9,8** % ni, sanoatda – **6,0** % ni, xizmatlar sohasida – **5,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – 57,2 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 52,6 % ni va savdoda – 52,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – 44,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 44,9 % ni, xizmatlar sohasida – 46,2 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,9 % ni, savdoda – 2,6 % ni, qurilishda – 2,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	36,7	48,6	5,3
Band bo'lganlar soni	18,6	68,0	3,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	29,7	57,0	3,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	27,2	59,5	3,3
Raqobat muhiti	40,0	47,6	1,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	39,7	57,9	2,4
Band bo'lganlar soni	22,5	75,8	1,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	31,9	66,3	1,9
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	29,5	68,2	2,3
Raqobat muhiti	42,4	56,3	1,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli